

## BOSHLANG`ICH TA'LIMNING ZAMONAVIY TENDENTSIYALARI

Karimjanov A

*CHDPU "Boshlang`ich ta'lim kafedrası" dotsenti.*

Abdusoliyeva Dilnoza

*TIPI, Boshlang`ich ta'lim fakulteti yo`nalishi 2-kurs talabas.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ta'lim modeli va uning tarkibiy qismlari, boshlang`ich ta'lim tizimida 4K modelidan foydalanishning pedagogik xususiyatlari hamda shart-sharoitlari va pedagogik jarayonlarda uning amaliy ahamiyati, shuningdek, boshlang`ich sinf matematika darslari samaradorligini oshirishda 4K modelidan foydalanishning ahamiyati haqida so`z yuritiladi.*

**Kalit so`zlar:** *XXI asr ko`nikmalari, modeli, zamonaviy ta'lim tizimi, boshlang`ich ta'lim, kommunikativlik, kritik (tanqidiy) fikrlash, kollaborativlik, kreativlik.*

Prezident **Shavkat Mirziyoyev** Xalqaro kongress markaziga kelib, boshlang`ich sinflar uchun ishlab chiqilgan yangi avlod darsliklari taqdimoti bilan tanishdi.

Yangi avlod darsliklari taqdimotida tanishtiriladigan o`quv-metodik komplekslari (O`MK) asosini tanqidiy fikrlash, jamoaviy ishlash, ijodkorlik va muloqot qilish ko`nikmalarini rivojlantirish (4K) tamoyili tashkil etiladi.

Ularni ishlab chiqishda xalqaro dasturlar tomonidan o`quvchilarning muvaffaqiyatlarini baholashda qo`llaniladigan namunaviy topshiriqlar o`rganib chiqildi va asos qilib olindi (PISA, PIRLS, TIMSS, EGMA, EGRA).

O`quv metodik komplekslar faol o`quv jarayoni uchun to`liq materiallar to`plami: dasrlıklar, mashq daftarlari, o`qituvchilar uchun uslubiy qo`llanmalarni o`z ichiga oladi. Shuningdek, Estudy elektron ta'lim platformasi ham ushbu tizimga uyg`un tarzda kiritilgan. U matematika, tabiatshunoslik, informatika kabi fanlar bo`yicha o`quv kurslarni hamda egallangan bilimlarni mustahkamlash uchun 300 dan ziyod ongni oshiradigan o`yinli vazifalarni o`z ichiga oladi.

Platformadan dars davomida ham, bo`sh vaqtda ham foydalanish mumkin. o`quvchilar uning yordamida o`zlashtirgan materialni mustahkamlash bilan birga, mustaqil ravishda dasturdan ilgarilab ketishlari ham mumkin.

O`quv-metodik komplekslar Android, IOS platformalari va "Matematika" va "Alifbo" mobil ilovalari uchun o`zbek va rus tillarida ongni o`stiradigan o`yinlar to`plamiga ega interfaol o`quv dasturini ham o`z ichiga oaldi.

E'tiborlisi, 1-3-sinflar uchun taqdim etilgan dasrlıklarning bir qismi, xususan, tasviriy san'at, o`zbek tili va musiqiy savodxonlik bo`yicha kitoblar kengaytirilgan reallik texnologiyalaridan foydalanilgan holda ishlab chiqilgan.

"4K" modeliga asoslangan innovatsion yondashuv maktablarda qo`llash uchun alohida sharoitlar talab etmaydi. Masalan, o`quvchilarda tanqidiy fikrlash qobiliyati savol-topshiriqlar bilan muloqot ko`nikmasi esa savol-topshiriqlar va mashg`ulotlar orqali rivojlanadi. Maktablarda bu usullarni ishlatish uchun sharoit yo`q deb aytish noto`g`ri.

Yangi yondashuvni qo'llay olish asosan o'qituvchilarga bog'liq. Shuning uchun ham yaqinda Toshkentda respublikadan yig'ilgan 300 dan ortiq trener o'qituvchilar tayyorlandi. Ular mamlakatdagi boshqa barcha o'qituvchilar malakasini oshirishga yordam beradi.

Yangi innovatsion yondashuv natijasini o'quvchining dunyo qarashi, fikrlashi o'sishida ko'rish mumkin. XXI asr o'quvchisi portretida XXI asr ko'nikmalari bo'lishi kerak. Innovatsion yondashuvni qo'llashdan asosiy maqsad ham shu. Qolaversa, ta'limning asosiy maqsadi - o'quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarini hayotda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat.

Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o'qitish metodikasi takomillashtirish vazifasi belgilangan. Shunga muvofiq, darsliklarni yangilash bo'yicha muayyan ishlar bajarildi. Xususan, ilg'or-xorijiy tajribalar asosida 1-4-sinf darsliklari yangidan "4K" modeli asosida tayyorlandi. "4K" modelidan foydalanish ko'plab sinovlardan o'tgan, muhimi, zamonaviy yondashuvdir. Biz avvallari bolalarning yozuviga ko'proq e'tibor qaratganmiz, didaktantlar yozdirganmiz.

Yangi tajriba bilan esa o'quvchilarning tanqidiy fikrlashi, o'z fikrini erkin bayon eta olishiga ko'proq ahamiyat beriladi. Ushbu yangi zamonaviy maktab darsliklari innovatsion yondashuvni taqdim etadi. Bu metodologiya bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, to'rt asosiy kompetensiyalarni o'z ichiga oladi.

Kommunikativlik - darsliklar o'quvchilarning boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. O'quvchilar o'z fikrlarini aniq va ravshan ifodalash, suhbatdoshni tinglash va tushunish, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishni o'rganadilar.

Kritik fikrlash - ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga analitik nuqtai nazardan yondashishni o'rganadilar va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtai nazarini shakllantiradilar.

Kollaborativlik - darsliklar o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi.

Kreativlik - darsliklar ijodiy fikrlash va yangilik qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadilar, innovatsion yechimlar ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Ushbu muhim kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam berishni istasak, o'quv jarayonini bolalar uchun qiziqarli va foydali tarzda tashkillashtirishimiz kerak. Maktabdagi har bir dars o'quvchilar faqat fan mazmunini o'zlashtirishadigan emas, balki mustaqil bilim oladigan va qobiliyatini rivojlantiradigan jarayondir.

Boshlang'ich sinflar uchun yangi darsliklar esa kelajagimiz egalari bo'lmish yosh avlodni har tomonlama rivojlantiribgina qolmay, balki zamonaviy jamiyatga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni ularda shakllantirishga qaratilgani bilan yanada ahamiyatlidir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, boshlang'ich sinf darslarida 4K modelidan foydalanish quyidagi natijalarga olib keladi: o'quvchining o'rganish jarayonini boyitadi;

o`quvchilarga kognitiv (atrof-muhit haqidagi bilim doirasini kengaytirish, bilish ehtiyojlarini rivojlantirish ta`lim) axborot beradi; o`quvchilarda materialni o`rganishga ishtiyoq uyg`otadi; o`quvchilarning o`z shaxsiy bilim va dunyoqarashlarni shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi; axborotni ikki tomonlama almashish samaradorligini oshiradi; o`quvchilarga mustaqil hayotga tayyorlanishlari uchun zarur bilimlar beradi; turli xil madaniyat va ijtimoiy-iqtisodiy darajadagi guruhlar o`rtasida ijobiy o`zaro munosabatlarni ilgari suradi; hamkorlik shunday holatki, ta`lim jarayoni sub`ektlari birlashib faoliyat qiladi, o`rtoqlik, o`zaro yordam, jamoatchilik yuzaga keladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azizxo`jayeva N.M.(2006) Pedtexnologiya va pedagogik mahorat. - T.: "Fan, 61-69-b.
2. Ziyomammedov B. (2002) Yangi pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - T.: "Chinor ENK".
3. Karimlanov A.(2020) Boshlangich sinflarda ta`lim-tarbiya muammolari. Toshkent. 144 b.
4. Karimlanov A. (2008) Pedagogik tizimni boshqarish asoslari. Toshkent. 174 b.
5. Safina D.V., Musina R.G.(2007) Ta`lim berish va o`qishning interaktiv usullari. O`quv qo`llanma. 5-modul, -T.-43-b.
6. <https://kun.uz>
7. <https://m.aniq.uz>
8. <https://xabar.uz>